

**HOKIMIYATNING BO‘LINISHI PRINSIPI  
(FRANSUZ FALSAFIY-KRATOLOGIK VA SIYOSIY-HUQUQIY  
TAJRIBALARI )**

*Saurov Ravshonbek Ruslanbek o‘gli – Falsafa doktori (PhD), Toshkent Xalqaro  
Universiteti Huquqiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi*

[ravshonbek.saurov@gmail.com](mailto:ravshonbek.saurov@gmail.com)

+99897-363-22-71

**Annotatsiya:** Ijtimoiy davlat va konstitutsionalizm prinsipining shakllanishida fransuz revolyutsiyasi hamda fransuz ma’rifatparvarlari, faylasuflari va gumanistlarining o’rni benihoya kattadir. Mazkur maqolada ana shu revolyutsiya uyg‘otgan siyosiy tajribalar va tafakkur egalarining davlat hokimiyati bo‘linishi prinsipi haqidagi falsafiy-kratologik qarashlarini tadqiq qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** fransuz revolyutsiyasi, absolyutizm, senat, konsul, erkin davlat g‘oyasi.

**ПРИНЦИП РАЗДЕЛЕНИЯ ВЛАСТЕЙ (ФРАНЦУЗСКИЙ  
ФИЛОСОФСКО-КРАТОЛОГИЧЕСКИЙ И ПОЛИТИКО-ПРАВОВОЙ  
ОПЫТ)**

**Аннотация:** Роль Французской революции и французских интеллектуалов, философов и гуманистов в формировании социального государства и принципа конституционализма значительна. В статье рассматриваются политический опыт и философско-кратологические взгляды мыслителей на принцип разделения государственной власти, которые стали причиной этой революции.

**Ключевые слова:** Французская революция, абсолютизм, сенат, konsul, идея свободного государства.

**THE PRINCIPLE OF THE SEPARATION OF POWERS  
(FRENCH PHILOSOPHICAL-CRATOLOGICAL AND POLITICAL-  
LEGAL EXPERIENCES)**

**Abstract:** The role of the French revolution and French intellectuals, philosophers and humanists in the formation of the social state and the principle of constitutionalism is significant. This article examines the political experiences and the philosophical-cratological views of the thinkers about the principle of separation of state power, which caused this revolution.

**Key words:** French revolution, absolutism, senate, consul, idea of a free state.

**KIRISH.** Davlat boshqaruvida absolyutizm qirolning shaxsiy xohish va istaklarini ifoda etuvchi, monarx tomonidan amalga oshiriluvchi, markazlashgan idora edi. XVII asrda saroyda davlat boshqaruvchisiga yordamchi sifatida kotib lavozimi kiritiladi. Mohiyatiga ko'ra, kotib davlatning ichki va tashqi siyoatini belgilab beruvchi, saroyga taalluqli yozuvlarni, tashkiliy masalalarni olib boruvchi shaxs edi. Ichki boshqaruv ishlarining murakkablashishi, saroy bilan omma, davlat bilan xalq, monarx bilan burjuaziya (dvoryanlar, yirik mulk egalari, amaldorlar va notariuslar) o'rtasida vaqti-vaqti bilan paydo bo'lib turgan to'qnashuvlar davlat kotibi lavozimining mavqeini oshirdi. Natijada XVIII asrda davlat kotiblari, ularning yordamchilari, knyazliklarda esa ular ko'rsatmalarini bajaruvchi (byuro va seksiya)lar tashkil etiladi. Joylardagi saroy inspektorlari asta-sekin markazlashgan idoraga bo'ysunuvchi, uning ko'rsatmalarini bajaruvchi, sud, munitsipal boshqaruviga ko'maklashuvchi intendantlar shakllantiriladi. Ma'muriy ko'rsatmalarni bajaruvchi bu tizim, markazlashgan idora joylardagi munitsipal boshqaruv manfaatlariga zid keladi, XVIII asrga kelib, u ma'muriy-moliyaviy vazifalarni bajaruvchi monarx tomonidan tayinlanadigan organ sifatida qayta tashkil etiladi. Munitsipal va dehqon jamoalarining boshqaruv ishlarini nazorat etishni ham ushbu organ amalga oshiradi, natijada demokratizm prinsipi unutila boshlanadi. Bunga ma'lum darajada "Senat konsul haqida"gi qonunda ta'kidlangan "Respublikani boshqarish fransuzlar imperatori degan titulga ega imperatorga topshiriladi" degan norma ham ta'sir etdi [14, 132]. Sud-huquq tizimida esa eski senorial yustitsiya saqlanib qoladi. Qirollik sudi bilan quyi sudlarning faoliyatini yo'lga qo'yish murakkablashgach, appelyatsiya sudlari tashkil qilinadi [5, 233-

243; 6, 310-313]. Shuni alohida qayd etishimiz kerakki, Genrix IV, Lyudovik XIV va Lyudovik XV monarxligi paytida davlat absolyutizmi batamomam qaror topdi, Parij parlamenti va uning sudlar faoliyatiga hamda qonunchilikka ta'siri oshdi. Munitsipial boshqaruv ishlari ham Parij parlamentida ko'riladigan bo'ldi, natijada vakillik organining ta'siri oshirildi. Shunday bo'lsa-da, absolyutizm o'z manfaatlarini unutmadi, u iloji boricha parlamentni o'ziga bo'ysundirishga, shu tarzda absolyutizمنى yanada mustahkamlashga intildi. Turli izlanishlar va davlatchilik asoslarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida XVII-XVIII asrga kelib, rim huquqiga oid normalarga qurilgan, odatiy huquq, shahar huquqi va kanonik huquq bilan birga, milliy huquq tizimi shakllanadi. Bu huquqni ba'zan "gumanistlar maktabi" deb ham atashadi [6, 401], chunki Uyg'onish davrining yirik vakillari antik davr, ayniqsa rim huquqi tajribalarini milliy huquq va davlatchilikka tadbiq etishda bosh-qosh bo'lganlar. Ug'onish davri mohiyatan Yevropa davlatchiligi va milliy huquqiy, kontinental huquqiy normalarning shakllanishiga, davlat boshqaruvida qonunchilik (konstitutsionalizm) va parlamentarizmning ahamiyatini oshishiga ta'sir etganini unutib bo'lmaydi [1].

**MATERIALLAR VA METODLAR.** Fransuz ma'rifatparlari M.E.Monten (1533-1592), B.Paskal (1623-1662), Sh.Monteskyo (1689-1755), F.M.A.Volter (1694-1778), D.Didro (1713-1784), J.O.de Lametri (1709-1751), P.D.D.Golbax (1723-1798), E.B.de Kondilyak (1714-1780), J.J.Russo (1715-1778), N.S.R.Shamfor (1741-1794), R.J.Rene (1735-1820) kabilarning falsafiy-kratologik qarashlari bizning tadqiqot ishimiz uchun muhim manba hisoblanadi. Aynan ularning falsafiy merosi, siyosiy qarashlari fransuz ma'rifatparvarchiligining asosi sifatida davlatchilik nazariyasi va tarixida konstitutsionalizm va demokratizm prinsiplarini qaror toptirishga katta ta'sir qildi. Shu o'rinda, mazkur tadqiqotda qiyosiy tahlil, tarixiy-davriy metod hamda deskriptiv metodlardan foydalanildi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMALAR.** Mishel Montening uch jildli "Tajribalar" asari, muallifning ta'kidlashicha, zamondoshlari, ayniqsa "e'tiborli dvoryanin" uchun "kundalik, siyosiy, harbiy ishlarda qo'llanma" sifatida yozilgan

[8, 8]. Asarda yunon rim madaniyati va ma'naviy merosining yadrosi bo'lgan antropotsentrizmga tayaniladi. Fransuz ma'rifatparvarlarining gumanistik qarashlarida asosiy leytmotiv bo'lgan mazkur g'oya Yevropa falsafasiga, siyosiy qarashlariga, davlat va jamiyatni boshqarish prinsiplarining shakllanishiga ta'sir etadi. Gumanizm konstitutsionalizm va demokratizmga asos qilib olinadi. Shuning uchun Monten falsafasi haqida gapiranda uning davlatchilikka bevosita taalluqli yoki taalluqli emasligidan emas, balki inson va jamiyat o'rtasidagi aloqalarga oid fikrlari mohiyatidan kelib chiqish zarur. Faylasuf fikriga ko'ra, inson "mudom va azaldan ikkilanuvchan mavjudot. U haqda barqaror va yakdil biror fikr aytish oson emas" [8, 38]. Agar ushbu fundamental ahamiyatga ega fikrni insonning ijtimoiy-siyosiy va davlatchilikka oid izlanishlariga tadbiq etsak, haqiqatan ham, biror davrda, davlatda barqaror kratologik paradigma bo'lmaganini ko'ramiz. Ijtimoiy-siyosiy tuzum bilan birga davlatchilik ham tinmay o'zgarishda, davlat boshqaruvi mudom yangilanib, hatto bemaqsad o'zgartirilib turganini ko'ramiz. Insondagi tuzuvchi va buzg'unchi kuchlar uni va jamiyatni fluktatsion o'zgarishlarga undab kelgan. Beoromlik insonga va jamiyatga xos immanent xislat bo'lib qolgan. Chunki, M.Monten yozganidek, inson va jamiyat o'rtasidagi aloqalar alohida boshqaruv, ya'ni davlat boshqaruvi, mexanizmlarini va, ularning ikkalasidan ham ayrica turuvchi kratologik vositalarni taqozo etadi. Monten konstitutsionalizm haqida hech nima demaydi, biroq uning qonunlar ta'sir kuchi va vazifalari haqidagi qarashlari e'tiborlidir.

Blez Paskal falsafasida ham davlat va jamiyatning inson oldidagi burchlari, ularning dialektik aloqalari haqida turli fikrlar uchraydi. Biroq faylasufning aniq bir falsafiy-kratologik yoki ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasi yo'q, uchramaydi. Ha, ba'zan u jamiyat yoki davlat shakllantirgan ijtimoiy muhit shaxs ahvoliga, tasavvurlari va kechinmalariga ta'sir etishini qayd etadi. "Inson o'zining ayanchli ahvolini anglashi bilan ulug'vordir, deb yozadi u. Zero, muhtojlik o'zining mushkul ahvolini anglash demakdir. Bunday anglash ulug'vorlik belgisidir" [15, 271]. Demak, inson o'z ahvolini anglashi mumkin. og'ir turmushning boisini izlash orqali u turmushini yaxshilash choralarini topishi mumkin. Fikrlar insonni

yuksaltiradi, uning o'z kelajagi haqida o'ylashga undaydi. "Bizning bor yo'q fazilatlarimiz fikrlarimizda mujassamdir. Shu bois biz fazo va vaqt bilan emas, balki fikrlarimiz bilan yuksalmog'imiz lozim. Zotan, biz hech qachon fazo va vaqtni to'ldirolmaymiz. Jo'yali fikrlash axloqiylik ibtidosidir" [15]. Ko'rinib turibdiki, Paskal yon atrofni anglash va o'zgartirishni insonga, uning aql-u idrokiga yuklaydi. Insonning fikrlash qobiliyatiga ishonish B.Paskalni gumanist qiladi.

Fransuz ma'rifatparlari ichida falsafiy-kratologik qarashlari bilan Sh.Monteskyo alohida o'rin tutadi. Uning "erkin davlat" mohiyatan esa ijtimoiy davlat haqidagi falsafiy-kratologik va ijtimoiy-siyosiy qarashlari "Sulla va Evkrat", "Rimliklarning ulug'vorligi va tushkunligi sabablari to'g'risida mulohazalar", "Insonning vazifalari haqida umumiy mulohazalar", "G'oyalar tizimi haqida mulohazalar", "Qonunlar ruhi haqida" kabi asarlarida o'z ifodasini topadi. Faylasuf ilgari surgan "erkin davlat" g'oyasi [9] biz bugun ishlatayotgan ijtimoiy davlatga yaqin turadi, shuning uchun ushbu faylasuf qarashlari va asarlari haqida kengroq to'xtalish zarur.

Monteskyo vakillik demokratiyasi va hokimiyatning bo'linishi g'oyasini ilgari surib, g'arb liberalizmiga asos solgan falasuf hisoblanadi. U davlatning kelib chiqishi va boshqarishini ma'lum bir tarixiy shart -sharoitlar bilan bog'laydi. Tabiiatda, borliqda barcha narsalar o'z qonunlariga, tartiblariga ega. Kishilar tomonidan yaratilgan davlat va uni boshqarish esa ana shu tartiblar, qonunlarning eng yuksagidir. Jamiyat tarixida uchraydigan respublika, monarxiya va despotiya boshqarish shakllari mavjud. Bu davlat shakllarining ichki xususiyatlari, immanent belgilari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mahsuli bo'lib, ularga kishilarning o'zlari o'zgartirish kiritadilar yoki o'z mayl, istak va manfaatlariga muvofiq keladigan boshqarish mexanizmlarini yaratadilar. Demak, davlat va hokimiyat ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy jarayonlar mahsulidir, ularni xudo yaratgan emas, hokimiyatni ham monarxga, hukmdorga, absolyutga xudo bergan emas.

Monteskyoning 30 yildan ziyod umri "erkin davlat" bilan bog'liq hokimiyatning bo'linishi, qonunlar ustuvorligi, jamiyat va taraqqiyot uchun foydali bo'lgan siyosiy tuzumni shakllantirish masalalariga bag'ishlandi. Uning fikricha,

mavjud dalat hokimiyatlarini boshqarishda uchta respublika, monarxiya va despotiya shakllari mavjud. Respublika boshqarish shaklida yuqori hokimiyat xalq yoki uning vakillari qoʻlida boʻladi. Monarxiya shaklida esa davlat hokimiyati bir, ammo qonunlar va tartiblarga itoat etuvchi shaxs, monarx qoʻlida jamlanadi. Despotiya esa qonun va tartiblarni bilmaydi, hukmdor hokimiyatni oʻz bilganicha, ixtiyoricha boshqaradi [10, 18]. Shundan keyin faylasuf ushbu boshqarish, hokimiyat shakllariga tasnif berishga, ularning asosiy falsafiy-kratologik jihatlarini ochib berishga oʻtadi. Masalan, respublika boshqarish shaklida xalq asosiy kuch sifatida hokimiyatga, uning qarorlariga taʼsir etadi. Agar unda xalq vakillari boshqarishi ustuvor boʻlsa, aristokratik boshqarish yuzaga keladi, ammo ushbu qatlamning xalqqa hisob berishini tashkil etish har doim ham koʻnglildagidek boʻlavermaydi. Hokimiyatga ega qatlam pastki qatlamni mensimaslika, oʻz bilganlaridan qolmaslikka, natijada hokimiyatni uzurpatsiya (suisteʼmol) qilishga intiladi. Demokratik boshqarish aristokratik boshqarishga aylanishi, xatto boshboshdoqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Hokimiyatga xos boʻlgan boshqarish jihatlarini xalq biladimi deb savol qoʻyadi Monteskyo. Yoʻq, deb javob beradi u. Demokratik boshqarishga qurilgan davlatda xalq maʼlum bir sinflarga boʻlingan boʻladi. Bu sinflar davlat boshqarishi tizimlariga muvofiq xizmat qiladigan qatlamlar sifatida xalq tomonidan saylanadi. Afina va Rim konstitutsiyalari bu borada ibratli misollar boʻlishi mumkin [10, 24]. Demak, demokratik boshqarish qonunlar ustuvorligiga, konstitutsionalizm prinsipiga asoslangani bilan qolgan ikki hokimiyat shakllaridan farq qiladi.

Monteskyoning asosiy falsafiy-kratologik gʻoyasi hokimiyatning boʻlinishi haqidadir. Aynan ushbu falsafiy-kratologik gʻoya dalat boshqarishi, hokimiyatning suisteʼiol qilinishiga qarshi turgan nazariy konsepsiya sifatida davlatshunoslik va huquqshunoslikda muhim oʻrin tutadi. Aslida hokimiyatning boʻlinishi haqidagi fikr avvalo J.Lokk tomonidan ilgari surilgan edi. Monteskyo ingliz faylasufi Lokkning ushbu gʻoyasini fransuz zaminiga, siyosiy-ijtimoiy borligʻiga koʻchirdi. Maʼlumki, Lokk markazlashgan dalat tarafdori sifatida ingliz federativ, aslida monarxistik boshqarishini qoʻllab-quvvatlagan. Uning hokimiyatni boʻlinishida

sud hokimiyati nazarda tutilmagan. Monteskyo ushbu bo'shliqni to'ldirdi va hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud tizimlariga ajratdi. Eng muhimi shundaki, ingliz yozilmagan konstitutsion monarxiya boshqarishidan ilhomlangan Monteskyo Lokk va uning hokimiyatni bo'linishi, ingliz strataplari o'rtasidagi farqlar, ayniqsa parlamentarizmning yo'lga qo'yilganidan faxrlangan. Qirol hokimiyati, aristokratiya va palata boshqaruvi fransuz faylasufiga hokimiyatning taqsimlanishi va ularni uyg'unlashgan konstitutsion modeli bo'lib ko'ringan [9, 30]. Shuning uchun ham ba'zi tadqiqotchilar Monteskyo Britaniya konstitutsionalizmi va demokratizmi to'g'risida yetarli xabardor bo'lmagan degan fikrni bildirishadi [9, 33]. Ha, Britaniya parlamentarizmi xalq hokimiyatining ko'rinishi, ifodasi emas edi, lordlar palatasi ham, umumiy palata ham yuqori sinf vakillaridan iborat edi. Tashqi ko'rinishidan parlamentarizm demokratik boshqarish, ayniqsa parlament va qirol o'rtasida kechgan to'qnashuvlar, parlamentning qirol faoliyatini cheklashga intilishlari Monteskyoga chin respublika (demokratiya) boshqarishi usuli bo'lib ko'ringan bo'shlishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, uning hokimiyatni bo'linish prinsipini yetarli asoslagani va sud tizimini hokimiyatning uchinchi bo'lagi sifatida e'tirof etgani Yevropa falsafiy-kratologik fikrlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Uning ijtimoiy shartnoma prinsipiga moyil bo'lgani, davlat hokimiyati bilan xalq o'rtasida konsensus bo'lishi zarurligi haqidagi umumiy nazariy, falsafiy-kratologik fikrlari bugun ham ahamyatini yo'qotgani yo'q.

Monteskyo ilmiy iste'molga olib kirgan "erkin davlat" yoki "ijtimoiy davlat" hokimiyatning bo'linishi prinsipiga asoslanadigan institutdir. Unda hokimiyat tizimlari bir birini nazorat qilib boradi, ular bir birlarining toza, qonunlarga amal qilgan holda ishlashini ta'minlaydi. Amaldorlar tomonidan g'ayriqonuniy xatti-harakatlarning sodir bo'lmasligi, hokimiyatning suiste'mol qilinmasligi, davlat boshqarishida absolyutizmning kelib chiqmasligi, xalq manfaatlarini ko'zlab ish yuritish prinsipining shaklanishi kabilarning kafolati nafaqat qonunlarga rioya etish, shuningdek, davlat boshqaruvi tizimlarining o'z funkciyalarini to'g'ri va to'la ado etishiga ham bog'liqdir. Bu esa, tag'in, qonun ustuvorligiga, qonunlarni

ijtimoiy ob'ektiv zarurat sifatida idrok etilishiga borib taqaladi. Davlat bilan xalq o'rtasidagi aloqalarni, bir birlarini bog'lovchi kuch, mexanizm qonunlardir, ularga bo'ysunishda bir birini nazorat qilish prinsipi muhim rol o'ynaydi [12, 178-179; 2, 142-154].

Monteskyo demokratiya shakli mavjudligini tan olsa-da, o'zi konstitutsion monarxiya tarafdori edi. U qonun chiqaruvchi hokimiyatni xalq hokimiyati deb biladi. Uni xalq saylaydi. Lekin ijro hokimiyati davlatniki, ushbu davlatga ega hukmdor uni boshqaradi. Bu hokimiyat barqaror, uzluksiz ishlaganidagina qonunlar ham ishlaydi, samarasini beradi. Sud hokimiyati ham xalq tomonidan saylanadi va qonunlarning bajarilishini ta'minlaydi. Shu tarzda davlat hokimiyati bo'linishi ro'y beradi, ular bir birlarining faoliyatiga aralashmaydi. Qonunlarga rioya etish ular faoliyatini belgilab beradi. Agar o'sha paytdagi vaziyatdan kelib chiqsak, bu Monteskyoning fantaziyasi edi, Fransiya qiroli o'z mavqeni hech qachon berib qo'ymagan, u istagan paytida qonunchilik tizimiga ham, sud tizimiga ham tazyiq o'tkazishi mumkin edi.

Ma'rifatparvarlik davrigacha suveren (knyaz, monarx) davlat ishlarini yakka o'zi olib borgan. Bu esa ko'pincha despotik boshqarishni yuzaga keltirgan. XVII asrda mehnat taqsimotining ob'ektiv zaruratga aylanishi, differentsiatsiya davlat ishlarida ham shunday bo'linishni taqozo eta boshladi. J.Lokk va Sh.Monteskyoning davlat hokimiyatining bo'linishi borasidagi falsafiy-kratologik doktrinasini ana shu ijtimoiy ob'ektiv zarurat ifodasi edi.

Monteskyoning hokimiyatning bo'linish haqida falsafiy-kratologik nazariyasi ma'rifatparvarlarda turlicha fikrlarni uyg'otgan. Masalan, F.M.A.Volter absolyutizm tarafdori sifatida Monteskyo qarashlarini rad etgan. Uning fikricha, hokimiyatning uchga bo'linishi davlatning zaiflashiga sabab bo'ladi, bu esa jamiyatda boshboshdoqlikni, kaosni, fuqarolar urushini keltirib chiqaradi. Xalq ommasi isyon ko'tarishga moyil, hokimiyatning bo'linishi esa uning axloqini buzilishiga olib kelishi mumkin [3; 7].

Volter Platonning falsafiy-kratologik qarashlariga ergashgan. U Platon kabi davlatni, hokimiyatni faylasuf hukmdor boshqarishi zarur, deb biladi. "Monarx

qonun chiqaruvchi, yaratuvchi va jangchi” faylasuf nazarda tutgan ideal hukmdor [3]. Faylasuf yo hukmdor bo’lishi kerak, yoki hukmdor faylasufga quloq tutishi, uning davlat boshqaruvi va hokimiyatni mustahkamlashga oid qarashlariga ergashishi lozim. Ma’rifatli shoh yoki monarx boshqa faylasuflarda ham uchraydi. Monteskyo ham, Volter ham davlatni, hokimiyatni boshqarishda qonunning o’rniga katta ahamiyat berishgan, shu nuqtai nazardan ularning falsafiy-kratologik qarashlari yaqin va umumiy siyosiy-huquqiy mohiyatga egadir.

Monteskyo va Volterning falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy qarashlari D.Didro ijodida davom ettirildi. Uning “Ensiklopediyasi”dagi ko’pgina fiklar Monteskyo falsafasiga aynandir. U ham, Monteskyo kabi, xalq hokimiyatchiligini, demokratik boshqarishga moyillik bildirgan tarzda, konstitutsiyaviy monarxiyani qo’llab-quvvatlaydi. Uning falsafiy- kratologik va siyosiy-huquqiy g’oyalari nafaqat Yevropaga, shuningdek, Rossiyaga ham tarqaladi. Manbalarda keltirilishicha, Rossiya imperatori Yekaterina II uni Rossiyaga taklif etgan, u bilan har kuni davlat boshqaruvi, ijtimoiy-siyosiy muammolar hakida suhbatlar olib borgan. U imperatorga “konstitutsiyaviy monarxiya boshqaruvi (Angliya kabi), uni xalq tomonidan saylangan kishilar boshqarishi, krepostnoylikni bekor qilish, yerga egalik qilishning feodal xo’jaligidan voz kechib, fermerlikni tashkil etish, fuqarolar huquqini tenglashtirish, iqtisodiyotni erkin bozor asosida tashkil etish, ta’limda chuqur islohotlar o’tkazish, tabiiy ilmiy fanlarni yuqori darajaga olib chiqish kabi takliflarni bergan” [13, 486]. Bu masalalar u yoki bu tarzda faylasufning asarlarida o’z ifodasigi topgan. Uning fikricha, “jamiyatda insonlar faoliyatini bo’g’ib qo’ymaslik, demokratiya, tenglik jamiyatini qurish lozim. Xalqni cheksiz soliqlar solib qiynashga yo’l qo’ymaslik, barcha kishilar qonun oldida barbar bo’lishlari kerak” [13, 489].

Didro, barcha fransuz ma’rifatparvarlari kabi, “ijtimoiy shartnoma” tarafdori edi. Demak, uning falsafiy-kratologik ta’limoti davlatning ma’lum bir ijtimoiy-tarixiy jarayonlarda yuzaga kelganini tan oladi. Uning ateistik qarashlari ushbu yondashuvga hamohangdir. Didro konstitutsionalizm to’g’risida aniq bir fikrni aytmasa ham, uning adolat, tenglik va qonun ustuvorligi, demokratik boshqarish,

ma'rifatli hukmdor haqidagi qarashlarida mavzumizga oid jihatlar mavjud. Didroning "demokratik monarxiya" hokimiyat shakli haqidagi fikrlari ratsional utilitar xususiyatga ega bo'lib, davlat boshqarishida kimdir (monarx, hukmdor, shoh) mas'ul bo'lishini anglatadi. Ushbu mas'ullikni qonunlar va tartiblar bilan chegaralash, belgilab berish, natijada absolyutizm yoki deespotizmga imkon qolmaydi. Konstitutsion monarxiya hukmdorning o'z zimmasiga olgan vazifasi oldida mas'ulligini oshiradi. Har holda, fransuz ma'rifatparvarlari shunday falsafiy-kratologik va siyosiy-huquqiy qarash tarafdorlari edilar.

Fransuz ma'rifatparlari ichida K. A. Gelvesiy va P. A. Golbaxning alohida o'rni bor. Ular tafakkur tarixida materialistik qarashlari bilan hanuzgacha bahs, munozaralar uyg'otib kelayotgan faylasuflardir. Ular "tabiiy holat"ni rad etib, inson aqlu idroki bilan jamiyatdagi munosabatlarni, boshqarish usullarini, hokimiyatga oid voqeliklarni yaratgan, degan falsafiy fundamental qarashni ilgari surganlar. Faylasuflar nazarida hokimiyatning haddan tashqari ko'pligi tiraniyaga, erkinlikning behad ko'pligi esa tartibsizlikka, davlat boshqaruvida esa hokimiyatni suiste'mol qilishga olib keladi. Shu tarzda, hokimiyatning bir qo'lda yig'ilib qolishi xavfli, bo'lingan hokimiyat esa zaifdir. Gelvesiy zamondoshi Monteskyoning hokimiyatni bo'linishi prinsipi qarshi chiqadi. Bunday bo'linish hokimiyatning zaiflashuviga olib keladi, zaif davlat esa xalq ommasini boshqarolmaydi. Hokimiyat kuchli bo'lishi, o'z qo'lida boshqarishning barcha samarali vositalari va usullarini ushlab turishi zarur. U Monteskyoning behuda ingliz modeliga ergashgani ko'rsatadi. Shunday bo'lsa-da, Didro, Gelvesiy va Golbax, xuddi Montesyo kabi, konstitutsiyaviy parlamentli monarxiya tarafdorlari sifatida fikr yuritganlar [9, 54].

**XULOSA.** Monteskyoning hokimiyatni bo'linishiga oid falsafiy-kratologik nazariyasini keskin va beshafqat tanqid qilgan J. J. Russo bo'ldi. Uning "ijtimoiy shartnoma" nazariyasi radikal demokratizm va respublikachilik ruhi bilan sug'orilgan. U o'zidan oldingi J. Lokk va T. Gobbsning falsafiy-kratologik qarashlariga tayanib, ularni sintezlashtirib, "xalq suvereniteti" yoki "xalq absolyutizmi" kabi tushunchalarni iste'molga kiritdi. U xalq demokratiyasini

davlat hokimiyatini boshqarishdagi ideal usul deb bildi. Boshqarishni xalq irodasi va suvereniteti bilan bogʻlab, davlat suvereniteti xalq irodasini ifoda etadi. Bu huquq boshqalarga berilmaydi, aks holda hokimiyatni boshqarishda jamiyat hayotiga zid hollar yuzaga keladi va bu ijtimoiy shartnomani buzadi, deb talqin qildi. J.J.Russo Monteskyoni hokimiyat boʻlinishi orqali eski feodal boshqarish usularini asrab qolishga, shu tariqa davlat ichidagi aloqalarni yoʻq qilishga, jamiyatda va boshqarishda anarxiyani keltirib chiqarishga intilishda aybladi. Ammo tarix Monteskyoning haqligini, u tufayli Yevropada, umuman dunyoda, liberal qarashlar tarqalganini isbotladi. XIX asr Fransiyada liberal demokratik gʻoyalar, konstitutsional demokratizm prinsipi qaror topdi, XX asrda esa ushbu prinsip inson huquq va erkinliklari bilan uygʻunlashib, yangi siyosiy-ijtimoiy voqelikni, falsafiy- kratologik paradigmani shakllantirdi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:**

1. Аннерс Э. История европейского права. — Москва: Норма инфра, 1994
2. Волгин В.П. Развитие общественной мысли во Франции в XVIII веке. — Москва: Наука, 1977.
3. Вольтер Ф.М.А. Собрание сочинения. – Москва: Сигма Пресс, Том 2. 1998.
4. Вольтер Ф.М.А. Философские сочинения. -Москва: Наука, 1989.
5. Гизо Г. История Франции. Франция сквоз века. — Москва: Наука, 2024.
6. История государства и права зарубежных стран. Часть 1. Учебник. — Москва: Норма инфра М., 2001.
7. Кузнецов В.Н. Вольтер и философия французского просвещения ХУ111 века. — Москва: Изд. Моск. ун-та, 1965.
8. Ментень М.Э.де. Опыты. Избранные главы. — Москва: Изд. “Правда”, 1991.
9. Милованов К.Ю. Философский проект “свободного государства” Монтескье и его критика современниками //”Проблемы современного обраования”, 2016, № 5.

- 10.Монтескьё Ш. О духе законов. — Москва: АСТ, 2022.
- 11.Мотень М. Э. Опыты. Избранные главы. — Москва: Изд. “Правда”, 1991.
- 12.Плавинская Н.Ю. Монархия и народовластие в культуре просвещения. — Москва: Наука, 1995.
- 13.Тўхлиев О. Европа фалсафаси. — Тошкент: Тафаккур, 2016.
- 14.Хрестоматия по всеобщей истории государства и права. — Москва: Юристъ, 2012.
- 15.Ҳақиқат манзаралари. 99 мумтоз файласуф. — Тошкент: Янги аср алоди, 2007.